

JAHON  
XALQ ERTAKLARI


# SHARRI SHAMCHIROQ







# SHARII SHAMCHIROQ



Handwritten text in a blue box, possibly a library or collection stamp, including the number "12-111".

UO'K: 398.21(=512.133)

KBK: 2(50')

X 22

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/21-54


ISBN 978-9943-07-759-1

© M. Omon tarjimasi

© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

# SEHRLI SHAMCHIROQ

*(Sharq xalqlari ertagi)*



O'tgan zamonda bir mamlakatda ikki aka-uka bo'lgan ekan. Ular o'z qishloqlaridan chiqib ketganlariga bir necha yil bo'lgan ekan.

Ularning qishlog'ida sakkiz-o'n yoshli bolalardan bir qanchasi suvi qurigan ariqda qumdan „Ariq-ariq“ qilib, o'ynab turgan vaqtda bir mo'ysafid chol ko'chadan o'tib ketayotib, Oloviddin degan bolani oldiga chaqiribdi. Chol Oloviddinga:

– Men dadangning akasi bo'laman, sen tug'ilmasdan avval uydan chiqib ketgan edim. Sen tug'ilib shuncha yoshga kiribsan, oying tinch o'tiribdimi? – deb uni quchoqlab, o'pibdi. Oloviddin yugurib oyisining oldiga kiribdi va „Oyi, oyi, amakim keldi, men bilan so'rashdi. Uyga boshlab kiraymi?“ – debdi.



Oyisi ham xursand bo‘lib, uyga boshlab kirishni buyuribdi. Chol uyga kimgach, xuddi Oloviddinning amakisiga o‘xshab mehribonlik bilan ko‘rishib, yig‘i-sig‘i bilan hol-ahvol so‘rashibdi. Chol bir-ikki kun mehmon bo‘lib, Oloviddinni o‘ziga juda o‘rgatib olibdi. Oloviddin undan bir qadam ham uzoqlashmas ekan.

Bir kuni chol Oloviddinni shaharga olib borib o‘ynatib kelmoqchi bo‘libdi va onasidan ruxsat so‘rabdi. Ular shaharga borib, ko‘p joylarni tomosha qilibdilar.

Chol Oloviddinga yangi kiyimlar olib beribdi. Shahardan qishloqqa qaytish paytida chol: „Yur, o‘g‘lim, ana u yerda biroz ishimiz bor, shuni bitkazib ketaylik“, – deb Oloviddinni shaharning kun botish tomoniga – adirga qarab boshlabdi. Adirning ustiga chiqqach, chol Oloviddinga bir uzukni berib, kattakon toshni ko‘rsatibdi.

– Mana bu uzukni o‘ng qo‘lingga taqib ol, qachon boshingga bir qiyinchilik tushsa, biror toshga surkasang, senga asqotadi. Mana bu harsang toshning tagida bir yer osti g‘ori bor, u yerga tushsang, u yerdagi bir xonada qora chiroq (shamchiroq) bor, shuni menga olib chiqib berasan, – debdi.


Oloviddin toshni ko‘tarib, surib pastga qarab tusha boshlabdi. Bir necha xonadan o‘tgach, atrofi yop-yorug‘ uyga yetib boribdi. Bu uyning tagi har xil rangli toshlarga to‘la ekan. Bu toshlar orasidan eski bir shamchiroqni topibdi.

Shamchiroqni cho‘ntakka solgach, marvarid, yoqut toshlar ko‘ziga bir ajoyib ko‘rinib ketibdi. Ikki cho‘ntagini to‘ldirib, tushib kelgan narvoni orqali tepaga ko‘tarila boshlabdi.

Chol tashqarida:

– Oloviddin, chiroqni topdingmi? Olib chiqyapsanmi? – deb bir necha marta so‘rabdi. Oloviddin g‘orning og‘ziga yetganida shamchiroqni menga bera qol, – debdi.











Shamchiroq cho‘ntakning ostida bo‘lib, uning ustiga turli qimmatbaho toshlar to‘ldirilgan edi. Oloviddin narvonning ustida turgan paytida toshlarning tagida turgan shamchiroqni olib berishga qiynalibdi. Bir necha daqiqagacha uni bir qo‘li bilan ololmabdi. Chunki toshlarni tashlab yuborishga ko‘zi qiymabdi.

Cholning xayolida Oloviddin shamchiroqni bergisi kelmayotgandek ko‘rinibdi. Shuning uchun uning jahli chiqib, g‘or og‘zini tosh bilan qayta berkitib ketibdi. Oloviddin dod-faryod qilib, zor-zor yig‘labdi. Qanday qilib yer yuziga chiqishning yo‘lini bilolmabdi. Yana ilgarigi yorug‘ xonaga tushib „Dod“ deb yig‘lay boshlabdi. Behush bo‘lib, bir necha kun yotib qolibdi.

G‘orda madori qurib ketib, goh u tomonga, goh bu tomonga ag‘anabdi, qo‘llari toshlarga urilib, qo‘lidagi uzuk toshga surkalib ketibdi. Shu zahotiyoq Oloviddinning tepasida bir barzangi dev paydo bo‘libdi va unga: „Tila tilagingni, xizmatingga tayyorman“, debdi. Dev unga sehrli shamchiroqning sirini ham aytib beribdi.

Oloviddin devdan yer yuziga, o‘z qishlog‘iga – onasining yoniga eltib qo‘yishni so‘rabdi. Dev unga:

– Yelkanga minib, ko‘zingni yum, – debdi. Oloviddin devning yelkasiga minibdi. Dev yana:

– Ko‘zingni och! – debdi. Oloviddin ko‘zini ochib qarasa, onasining yonida turganmish. U onasi bilan mehribonlarcha ko‘rishibdi, yig‘i-sig‘i



qilibdi. Ko‘rganlarini aytib beribdi. Shamchiroqni bir parcha kigizga ishqalagan ekan, haligi devdan ham katta bir dev paydo bo‘libdi.

Oloviddin unga:

– Podshohlarning saroyidan ham afzal bir saroy barpo bo‘lsin. Hatto zinapoyalari ham oltindan bo‘lsin. Hamma ko‘rib hayron qolsin, – debdi. Bir zumda aytgani paydo bo‘libdi. Endi Oloviddin o‘z onasiga:

– Podshohning bir qizi bor emish. Shunga sovchi bo‘lib borsangiz. Qaliniga nima so‘rasa ham, men topib berishga tayyorman, – debdi.

Podshoh dastlab bu kambag‘alga qizini berishni loyiq topmabdi. Shuga qalin uchun ko‘p boylik so‘rabdi:

– Tualarda toza mollar karvon-karvon keltirilsin, qo‘ylar, yilqilar „bo‘ldi-bo‘ldi“ demagunimcha keltirilsin. Yog‘-u asallar ariqlarda suv o‘rniga oqib tursin. Men bu narsalarga joy topolmay, „dod“ degunimcha kelaversin. So‘ng qizimni beraman, – debdi.

Oyisi bu gapni Oloviddinga borib aytganda, Oloviddin „Hi“, – deb kulib qo‘yib:

– Ertagayoq tayyor bo‘ladi bu narsalar, – debdi.


Podshohning so‘ragan qalini: mollar, qo‘y-echkilarni aytganidan ham ziyoda qilib yuborilibdi.

Podshoh o‘z qizini qirq kun to‘y-tomosha qilib, Oloviddinga beribdi va ular baxtiyor hayot kechira boshlashibdi. Oloviddinning yaxshi oti bor ekan. Shu otda har kuni dalaga ovga qiladigan bo‘libdi.











Endigi gapni choldan eshiting. Bir necha yillardan buyon chol Oloviddin yer yuziga chiqib hayot kechirayotgandir, deya mamlakatlarni kezib, uni axtarib yurar ekan. Bir kuni Oloviddin yashaydigan qishloqqa kelib qolibdi. Qarasa, qaddi ko'klarga ko'tarilgan hashamatli, ajoyib bir binoni ko'ribdi. Odamlardan: „Bu uy kimning uyi?“ – deb so'rabdi. Ular Oloviddinning uyi ekanini aytibdilar.

Cholning yuragi jig'illab ketibdi. U bozordan xurjuniga to'ldirib shamchiroq sotib olibdi. Yangi bino joylashgan ko'chada qattiq ovoz bilan „Kim yangi shamchiroqqa eski shamchiroqni almashtiradi“, – deb qichqiribdi.

Bu ovozni Oloviddinning xotini eshitib qolibdi. O'choqning boshida bir eski shamchiroq anchadan buyon yotar ekan. U uy xizmatchisiga qarab:

– Shu eski shamchiroqni olib chiqib, yangisiga almashtirib keling, – deb aytibdi. Xizmatkor ham eski chiroqni yangisini almashtirib kelibdi. Chol maqsadiga yetibdi. Shamchiroqni shahar chekkasiga olib borib, uni o'pib, yig'labdi. Qachondan buyon uni axtarib, azob chekkanini aytibdi. Chol shamchiroqqa kigizni ishqalabdi va yonida hozir bo'lgan devga qarab:

– Axtarib topib bo'lmaydigan bir uzoq mamlakatga menga qo'shib Oloviddinning uyini, xotini va narsalari bilan ko'chirib yubor, – debdi.

Chol ko'zini yumib, ochib qarasa, bir ajoyib o'lkada, zo'r imorat ichida turgan emish.

Yonida podshohning qizi – Oloviddinning yosh xotini va onasi. Chol shamchiroqni yerga qo'ymasdan, qo'yniga solib yuradigan bo'libdi.



Oloviddinning xotini cholni yaqiniga keltirmay, undan nafratlanib yuribdi. Chol yosh xotinning ko‘nglini topa olmabdi.

Endi gapni Oloviddindan eshitaylik. Oloviddin ovdan kelsa, uyi o‘rnida chang-to‘zon ko‘tarilib yotgan emish. Oilasi ham uyi ham g‘oyib bo‘libdi. Xafa bo‘lib, bir necha yil shaharma-shahar ularni axtaribdi. Bormagan yurti qolmabdi.







Bir kuni Oloviddin holdan ketib, charchab, bir ariqchaning yonida to‘xtabdi. Yuz-qo‘llarini shildirab oqib turgan zilol suvda yuvibdi.

Suv ostida ko‘rinib turgan mayda toshchalardan qo‘liga to‘ldirib olibdi. Shunda panjasidagi uzukka toshlar ishqalanib ketib, uning chaqnaganini ko‘rib, uzugi sehrli ekanligi yodiga tushibdi. Qo‘lidagi uzukni toshga ishqalasa, bir dev paydo bo‘libdi va unga „Tila tilagingni!“ – debdi. Oloviddin unga:

– Men katta baxtsizlikka duchor bo‘ldim: imoratim, xotinim, onamdan ajraldim. Ularni menga topib bersang, – debdi. Dev bo‘lsa:

– Ularni qaytarib kelish mening qo‘limdan kelmas, ammo imorat turgan joyga seni olib borib qo‘yish qo‘limdan keladi, – debdi va Oloviddinni yelkasiga mindirib, shu imoratning oldiga keltirib qo‘yibdi. Oloviddin bir kampirni topib, uyda kim borligini, cholning qayerdaligini, shamchiroq qayerda turishini aniqlashni so‘rabdi. O‘zining kelganini xotiniga bildiribdi.

Shu kuni ular chiroqni choldan olish uchun bir hiyla ishlatibdilar. Kelin bir necha shishada sharob tayyorlabdi. Cholga qarab:


– Keling, bugun bir xursandchilik qilaylik, mayli, endi siz nima desangiz roziman, – debdi. Chol xursand bo‘lib, og‘zi qulog‘iga yetibdi.

Kelin o‘zining navbati kelganda sharobni ichmasdan yerga to‘kib, cholning piyolasiga to‘xtovsiz, ketma-ket sharob quyib beraveribdi. Oxiri chol mast bo‘lib uxlab, toshdek qotib qolibdi. Kelin uning qo‘ynidan sehrli shamchiroqni olibdi.



Ertasiga Oloviddin cholni hushiga keltirib, „Sehrgar aldamchining jazosi shu“, – deb uni borsa-kelmas yurtlarga badarg‘a qilibdi.

Sehrlil shamchiroqni kigizga ishqalab, devni chaqiribdi. Dev Oloviddin-ning uyini butun oila a‘zolari bilan o‘z yurtiga olib kelib qo‘yibdi. Shundan so‘ng Oloviddin tinch va osoyishta hayot kechira boshlabdi va murod- maqsadiga yetibdi.





# NON VA OLTIN

(Arab xalqlari ertagi)


Bir zamonlar Abbos degan nihoyatda qashshoq bir dehqon bo'lgan ekan. U tun-u kun o'z qornini to'ydirish va oilasini boqish g'am bilan ter to'kib mehnat qilar ekan. Qo'li ishdan bo'shagan paytlarida esa: „eh, qaniydi birota xazina topib olsam-u, shu tufayli barcha tashvish-u g'amlarimdan, yetishmoqchiliklarimdan xalos bo'lsam“, – deya o'ylab yurarkan.

Nihoyatda issiq va jazirama kunlardan birida Abbos har doimgidek, dalada mehnat qilayotgan ekan. Lekin nimagadir judayam charchab, sillasi qurib ketibdi. Shunda u daraxt soyasiga o'tirib olib, yana shirin xayollarga berilibdi. „Eh qaniydi, Alloh menga shunday bir ilohiy qudrat ato et-saydiki, men nimagaki qo'l tekkizsam, hammasi oltinga aylanib qolaversa. Eh, o'shanda butkul bu og'ir mehnatdan qutilib, bir umr rohat farog'atda, to'q va farovon yashab o'tgan bo'lardim.

U shu so'zlarni xayolidan o'tkazib turgan ham ekan-ki, g'oyibdan bir ovoz eshitilibdi.

– Hoy, Abbos! Hozir sen o'zing istagan fazilatga ega bo'lasan!





Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
IIV № 2023/29-54








Ishonmasang, qani, qo'lingni biror bir buyumga tekkizib ko'rchi, u o'sha zahotiyiq oltinga alanib qoladi!

Abbos bu so'zlarni eshitib, o'z quloqlariga ham ishonolmay qolibdi. Lekin shunday bo'lsa-da, ming bir hadik, hayajon bilan qo'lini kichkina-gina bir toshchaga tekkizibdi. Uning qo'li tegar-tegmas, o'sha tosh bir lahzada oltinga aylanib qolibdi. Keyin u yana boshqa bir toshga qo'l tekizibdi, u ham oltinga aylanibdi.





Bechora dehqon, bundan judayam xursand bo‘lib ketibdi. O‘zicha xayol qilibdi: „Juda ajoyib ish bo‘ldi-da. Endi hozir shaharga boramanda, u yerdagi har bir tosh, hatto changlarni ham oltinga aylantiraman, so‘ng, ana shu boyliklarga kattagina yer sotib olaman, daryo bo‘yidan bir qasr barpo etib, uning atrofini ulkan boqqa aylantiraman. Tag‘in eng zo‘r tulporlarni sotib olib, shohona liboslar kiyib yuraman“.


U shu payt o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan ekan, nimagadir boshi aylanib darmoni quribdi. Shunda Abbos tinimsiz ishlayverib nihoyatda charchaganini, qorni ham ochib ketganini anglabdi. Yo‘q, bu ahvolda biror joyga yurib bora olmayman, – deb o‘ylabdi u. „Yaxshisi, hozir ertalab uyimdan
















keltirgan yeguliklarimni yeb olaman“. Abbas shunday deya, yonidagi daraxt soyasida turgan yeguliklar solingan xaltachadan, bir bo‘lak nonni olib og‘ziga solibdi. Lekin tishlay desa, tishi o‘tmas emish. Ertalab yumshoqqina bo‘lgan non bir pasda allaqanday temirga, yo‘q, yo‘q temirga emas, naq oltinga aylanib qolgan emish!

Xaltachada yana bir bosh piyoz bor ekan, Abbas shosha-pisha unga qo‘lini uzatibdi. Lekin ne ajabki, piyoz ham mutlaqo yeb bo‘lmaydigan yombi oltinga aylanib qolgan emish. Buni ko‘rib Abbasning yuragi naq yorilay debdi.



– Axir endi qanday ovqatlanaman? Endi men uchun faqat oltinlardangina iborat bo‘lib qolgan bu hayotda qanday yashayman?! Axir bu ahvolda yaqinda hech bir mehnatsiz, mashaqqatsiz qo‘lga kiritigan bu bexosiyat oltinlarimdan foydalanishga ham ulgurmay, ochlikdan va suvsizlikdan o‘laman-ku! – deya xavotirga tushibdi, bechora Abbos.

Shu topda uning ko‘z oldiga, tutgan narsasi oltinga aylanishi oqibatida, o‘zining ochlik va suvsizlik azobidan nobud bo‘layotgan ayanchli ahvoli kelibdi.

Biroq, shu payt uning ko‘zlari yarq etib ochilib ketibdi. Qarasa, Abbos daraxtga suyanganicha, mudrab o‘tirgan emish. „Xayriyat-e, hammasi tushim ekan,“ – deya chuqur xo‘rsinibdi, Abbos. U shu darajada xursand bo‘lib ketibdiki, xuddi yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek bo‘libdi. Allohga beadam shukurlar bo‘lsin, bu mehnatsiz kelgan oltinlarning kasofatidan qutildim. Hammasi tush ekan. Ishqilib yaratgan meni hech qachon halol mehnat bilan topadigan boyligimdan ayirmasin! – degan qarorga kelibdi mehnatkash Abbos.





82(50')  
X 22

Sehri shamchiroq / [Matn]: ertak. – Toshkent:  
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)  
KBK 82(50')

RASSOM:

SHOHRUX TOSHTURDIYEV

# JAHON XALQ ERTAKLARI

„Ensiklopediya“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Tarjimon *Muhiddin Omon*  
Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*  
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*  
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2022. Bichimi 84×108<sup>1/16</sup>.  
„Times New Roman“ garniturası. 14 kegl.  
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.  
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 867-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya\_nashriyoti\_MU2021



Ensiklopediya\_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591